MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBALAR

Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi
University of Business and Science
oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi
Email: shaxnozaxojimirzayeva@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-4777-3662

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalar tahlil qilingan. Metakognitiv bilim, rejalashtirish, monitoring, o'z-o'zini nazorat qilish va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirishga oid ilmiy-pedagogik yondashuvlar o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda qo'llanilayotgan samarali metodlar hamda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlar qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada maktabgacha ta'lim jarayonida metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim mazmuni bilan uyg'unlashtirish muhimligi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, metakognitiv ko'nikmalar, metakognitiv bilim, rejalashtirish, monitoring, o'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya, xorijiy tajriba, mahalliy tajriba, pedagogik yondashuvlar.*

ЗАРУБЕЖНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: *В статье проанализирован зарубежный и отечественный опыт развития метакогнитивных навыков у детей дошкольного возраста. Рассмотрены научно-педагогические подходы к формированию метакогнитивных знаний, планирования, мониторинга, самоконтроля и рефлексии. Проведен сравнительный анализ эффективных методов, применяемых в зарубежных исследованиях, и возможностей их использования в системе дошкольного образования Узбекистана. Обоснована важность интеграции передового зарубежного опыта с национальным содержанием дошкольного образования для эффективного развития метакогнитивных навыков детей.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, метакогнитивные навыки, метакогнитивные знания, планирование, мониторинг, самоконтроль, рефлексия, зарубежный опыт, отечественный опыт, педагогические подходы.*

INTERNATIONAL AND LOCAL EXPERIENCES IN DEVELOPING METACOGNITIVE SKILLS IN PRESCHOOL-AGED CHILDREN

Abstract*: This article analyzes international and local experiences in developing metacognitive skills among preschool children. It examines scientific and pedagogical approaches to developing metacognitive knowledge, planning, monitoring, self-control, and reflection. Effective methods used in international research and their potential application within the preschool education system of Uzbekistan are comparatively analyzed. The study substantiates the importance of integrating advanced international practices with the national content of preschool education to effectively develop children's metacognitive skills.*

Keywords: *preschool education, metacognitive skills, metacognitive knowledge, planning, monitoring, self-control, reflection, international experience, local experience, pedagogical approaches.*

Kirish. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bolani har tomonlama rivojlantirish, uning shaxsiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida bolaning faqat ma'lum hajmdagi bilim va ko'nikmalarni egallashi yetarli hisoblanmaydi. Shu bilan birga, uning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlashi, o'z harakatlarini rejalashtirishi, faoliyati natijalarini baholashi va o'rganish jarayonini anglay olishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatlar ta'lim nazariyasi va amaliyotida metakognitiv ko'nikmalar tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Maktabgacha yosh davri metakognitiv ko'nikmalarning dastlabki ko'rinishlari shakllanadigan muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bolalar atrof-muhitni faol o'rganadi, turli savollar beradi, hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga intiladi, o'z taxminlarini ilgari suradi va ularni amaliy faoliyat orqali tekshirib ko'radi. Masalan, qurish-yasash jarayonida bola qanday shakl yoki materialdan foydalanishni tanlashi, qurilmaning nima sababdan buzilganini aniqlashi va uni qayta qurish yo'lini izlashi mumkin. Bunday vaziyatlar oddiy o'yin faoliyati ko'rinishida namoyon bo'lsa-da, aslida rejalashtirish, kuzatish, nazorat qilish va xulosaga kelish kabi metakognitiv jarayonlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati, avvalo, bolaning ta’lim jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishi bilan belgilanadi. Agar an’anaviy yondashuvda pedagog tomonidan berilgan topshiriqni bajarish va belgilangan natijaga erishish asosiy o‘rinda tursa, metakognitiv yondashuvda bolaning topshiriqni qanday bajarayotgani, qanday fikr yuritayotgani va o‘z faoliyatini qay darajada boshqara olayotgani ham e’tiborga olinadi. Bunda pedagog tayyor javobni taqdim etuvchi emas, balki bolani mustaqil fikrlashga undovchi, uning izlanishlarini qo‘llab-quvvatlovchi va faoliyatini yo‘naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot nazariy-qiyosiy xarakterga ega bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilmiy-pedagogik tajribalarni o‘rganish hamda umumlashtirishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi.

Nazariy tahlil metodi. Metakognitsiya, kognitiv rivojlanish, o‘zini o‘zi boshqarish va refleksiv faoliyatga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Jumladan, J. Flavell, R. Alexander, C. Rinaldi, P. Silander hamda D. Whitebread va uning hammualliflari tadqiqotlaridagi nazariy qarashlar tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi. Buyuk Britaniya, Finlandiya, Italiya va Xitoy maktabgacha ta’lim tizimlarida qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar o‘zaro taqqoslandi. Bunda bolalarning mustaqil fikrlashi, faoliyatni rejalashtirishi, o‘z harakatlarini nazorat qilishi va natijalarni baholashiga imkon beruvchi metodlarga alohida e’tibor qaratildi.

Hujjatlarni o‘rganish metodi. Xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta’limga oid dasturiy hujjatlari, Xitoy Ta’lim vazirligining 3–6 yoshli bolalarning o‘rganishi va rivojlanishiga doir qo‘llanmasi, Finlandiyaning maktabgacha ta’lim milliy o‘quv dasturi hamda O‘zbekistonning «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi o‘rganildi.

Tizimlashtirish va umumlashtirish metodi. O‘rganilgan manbalar asosida metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar, ularning tarkibiy elementlari va amaliy imkoniyatlari tizimlashtirildi.

Mazkur komponentlar maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilindi. Bunda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish maxsus nazariy mashg‘ulotlar bilan cheklanmasdan, kundalik o‘yin va amaliy faoliyatga integratsiya qilinishi zarurligi metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda bolaning rivojlanish jarayonini faqat tashqi ta’limiy ta’sirlar asosida emas, balki uning ichki bilish jarayonlarini boshqarish va refleksiv faoliyatini shakllantirish nuqtayi nazaridan o‘rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yosh davridan boshlab metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish shaxsning keyingi ta’lim bosqichlarida mustaqil fikrlash, muammoli

vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini refleksiv boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Metakognitsiya bolaning o‘z fikrlashi haqida fikrlashi, ya’ni nimani bilishi, nimani tushunmayotgani, vazifani qanday bajarishi va natijaga qay darajada erishganini anglashidir. Masalan, bola qurilish kublaridan minora yasayotganida uning balandligi qanday bo‘lishini oldindan o‘ylasa, qurish davomida xatolarini sezsa va minora qulaganida boshqa usulni sinab ko‘rsa, unda metakognitiv faoliyatning dastlabki ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Metakognitsiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda amerikalik psixolog John Flavell nomi bilan bog‘liq. Olim 1979-yilda chop etilgan tadqiqotida insonning o‘z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari va ularni boshqarish imkoniyatlarini alohida o‘rgangan. Uning qarashlari maktabgacha yoshdagi bolalarning ham o‘z faoliyatini anglash va boshqarish qobiliyatlari mavjudligini o‘rganish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishni murakkab nazariy tushunchalarni o‘rgatishdan boshlash to‘g‘ri emas. Aksincha, bolaning kundalik o‘yini, muloqoti, kuzatuvi va oddiy topshiriqlarni bajarish jarayonidan foydalanish lozim. Chunki bola aynan faoliyat davomida o‘zining qanday fikrlayotgani va nima sababdan muayyan qarorga kelayotganini anglay boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z fikrlashini nazorat qilish va faoliyatini tartibga solishning dastlabki ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular tegishli pedagogik sharoitlar asosida rivojlantirilishi mumkin. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirgan olimlardan biri R. Alexander hisoblanadi. Uning dialogik ta’limga oid nazariy qarashlarida ta’lim jarayonida savol-javob, fikr almashish, dalillash, tinglash va o‘z nuqtayi nazarini asoslashning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Dialogik yondashuvda bola ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki bilimlarni izlash, muhokama qilish va mazmunini anglashda faol qatnashuvchi subyekt sifatida qaraladi. R. Alexanderning yondashuvi metakognitiv rivojlanish bilan bevosita bog‘liq. Chunki bola o‘z fikrini bayon qilish, boshqa bolalarning qarashlarini tinglash va taqqoslash jarayonida o‘z fikrlash usullarini qayta ko‘rib chiqadi. Masalan, tarbiyachi muammoli vaziyat yuzasidan "Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?", "Boshqa qanday yechim taklif qilishing mumkin?", "Do‘stingning fikriga qo‘shilasanmi? Nima uchun?" kabi ochiq savollarni berishi orqali bolalarni mustaqil mulohaza yuritishga undaydi. Bunday muloqot bolaning nutqiy faolligini oshirish bilan bir qatorda, fikrlash jarayonini izohlash, asoslash va baholash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Dialogik ta’limning yana bir muhim jihati shundaki, unda tarbiyachi tayyor javoblarni taqdim etuvchi shaxs emas, balki bolaning fikrlash faoliyatini rag‘batlantiruvchi, yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi pedagog sifatida ishtirok etadi. Natijada bolalarda savol berish,

muammoga turli nuqtayi nazardan yondashish, o‘z fikrini o‘zgartirishdan qo‘rqmaslik va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Metakognitiv va refleksiv rivojlanishni izohlashda italiyalik pedagog va tadqiqotchi C. Rinaldining Reggio Emilia pedagogik yondashuviga asoslangan qarashlari ham muhim o‘rin tutadi. Uning ilmiy-pedagogik konsepsiyasida bolani mustaqil fikrlovchi, izlanishga moyil, o‘ziga xos qarash va imkoniyatlarga ega bo‘lgan faol subyekt sifatida e’tirof etish asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. C. Rinaldi tomonidan ilgari surilgan *listening pedagogy* — tinglash pedagogikasi ta’lim jarayonida bolaning fikri, savollari, his-tuyg‘ulari va individual tajribasiga e’tibor qaratishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvda tinglash oddiy eshitish jarayoni emas, balki bolaning fikrlash usullarini anglash, uning dunyoni qanday idrok etishini tushunish va ta’limiy faoliyatni shu asosda tashkil etish vositasi sifatida talqin qilinadi. Olimning qarashlarida pedagogik hujjatlashtirish (documentation) ham alohida ahamiyatga ega. Bunda bolalarning faoliyati, suhbatlari, savollari, chizmalari, yaratgan mahsulotlari va muammolarni hal etish jarayonlari kuzatilib, qayd etiladi hamda tahlil qilinadi. Bunday hujjatlashtirish tarbiyachiga bolaning rivojlanish dinamikasini aniqlash, uning qiziqishlarini anglash va keyingi ta’limiy faoliyatni maqsadli rejalashtirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvning metakognitiv ahamiyati shundaki, bola o‘z faoliyati natijalarini qayta ko‘rib chiqish, bajargan ishlarini tushuntirish va boshqa bolalarning fikrlari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, bolalarning birgalikda yaratgan loyihalari fotosuratlari, chizmalari va suhbatlari asosida "Biz nimani o‘rganmoqchi edik?", "Ish jarayonida qanday qiyinchilikka duch keldik?", "Muammoni qanday hal qildik?" kabi savollar muhokama qilinishi mumkin. Bu esa refleksiv faoliyatning dastlabki shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda finlandiyalik ta’lim tadqiqotchisi P. Silanderning zamonaviy ta’lim dizayni, raqamli pedagogika va o‘quv jarayonini loyihalashtirishga oid ishlari ham e’tiborga loyiq. Uning ta’lim texnologiyalariga oid yondashuvlarida o‘quvchining faol ishtiroki, mustaqil izlanishi, bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llashi va ta’lim jarayonida o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni his etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Bu qarashlar metakognitiv rivojlanishning muhim shartlari bo‘lgan mustaqil faoliyat, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ta’limiy jarayonni ongli tashkil etish bilan uyg‘unlashadi. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitida interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, vizual materiallar va qayta aloqa vositalaridan foydalanish bolaning bilish faolligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Biroq maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda raqamli vositalar asosiy ta’lim vositasiga aylanib qolmasligi, balki bevosita kuzatish, tajriba, muloqot va o‘yin faoliyatini to‘ldirishi lozim. P. Silanderning

yondashuvlarini metakognitiv ta'lim bilan bog'lashda muhim jihat shundaki, ta'lim jarayoni oldindan belgilangan natijaga erishish bilangina cheklanmasdan, bolaning ushbu natijaga qanday yo'l bilan erishganini anglashiga ham yo'naltirilishi zarur. Masalan, raqamli interaktiv topshiriq orqali geometrik shakllarni farqlash jarayonida bola shakllarni tanlaydi, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi, tanlovini izohlaydi va xatosini tuzatadi. Bu faoliyat kognitiv hamda metakognitiv jarayonlarning o'zaro uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Refleksiv faoliyat masalasida yuqorida ko'rib chiqilgan olimlarning qarashlari o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega. Refleksiya bolaning o'z faoliyati, erishgan natijalari, yo'l qo'ygan xatolari va qo'llagan usullarini anglash hamda tahlil qilish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshda refleksiya murakkab nazariy mulohazalar shaklida emas, balki bolaning o'z harakatlarini so'z bilan ifodalashi, bajargan ishini tushuntirishi, faoliyat natijasini baholashi va keyingi harakatlari haqida fikr bildirishi orqali shakllanadi. Masalan, mashg'ulot yakunida bolalarga quyidagi savollarni berish mumkin:

- Bugun qanday yangi bilimga ega bo'lding?
- Topshiriqni bajarishda nimadan foydalanding?
- Qaysi vazifani bajarish senga qiyin bo'ldi?
- Qiyinchilikni qanday bartaraf etding?
- Agar yana shu topshiriqni bajarsang, nimani boshqacha qilgan bo'larding?

Tadqiqot natijalari. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarida metakognitiv rivojlanish bolaning kognitiv salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan ta'lim sifatining asosiy mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, pedagogik jarayonda bolalarning o'z fikrlash jarayonlarini tushunishi, o'z faoliyatini rejalashtirishi, natijalarni baholashi va xatolarini tahlil qilishi kabi metakognitiv faoliyat elementlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv maktabgacha ta'limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki bolaning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil o'rganish qobiliyati va intellektual faolligini shakllantiruvchi kompleks pedagogik tizim sifatida ko'rishga asoslanadi.Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan ta'lim tizimlarida bolaning o'z bilish faoliyatini anglash, nazorat qilish va baholash

qobiliyatlarini shakllantirish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, Buyuk Britaniya maktabgacha ta'lim amaliyotida reflektiv ta'lim, dialogik o'qitish hamda o'z-o'zini baholash mexanizmlaridan foydalanish orqali bolalarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.Buyuk Britaniya tajribasida maktabgacha yoshdagi bolalarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodikalardan biri sifatida dialogik o'qitish metodikasi (Dialogic Teaching) alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv Robin Alexander tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda ta'lim jarayoni pedagog va bola o'rtasidagi mazmunli muloqot, fikr almashish va birgalikda bilim yaratish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Dialogik o'qitishning asosiy maqsadi bolalarni tayyor javoblarni o'zlashtirishga emas, balki savol berish, fikrini asoslash, muqobil qarashlarni tahlil qilish va o'z bilimlarini qayta ko'rib chiqishga yo'naltirishdan iborat. Mazkur yondashuv doirasida qo'llaniladigan ochiq turdagi savollar, fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlar va reflektiv suhbatlar bolalarda metakognitiv jarayonlarning faollashuviga xizmat qiladi. Masalan, "Bu xulosaga qanday kelding?", "Boshqa usul bilan bajarish mumkinmi?", "Qaysi yo'l samaraliroq bo'ldi?" kabi savollar bolaning o'z fikrlash jarayonini kuzatishi va baholashiga imkon yaratadi. Shu orqali bola nafaqat vazifani bajarish natijasini, balki uni amalga oshirish usullarini ham anglay boshlaydi. Finlandiya tajribasida maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish, avvalo, o'yin orqali o'rganish, fenomenlarga asoslangan ta'lim (phenomenon-based learning) hamda bolaning mustaqil fikrlash faoliyatini qo'llab-quvvatlash tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Mazkur yondashuvda bola tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki atrof-muhitni faol o'rganuvchi, savollar beruvchi, kuzatuvchi va xulosalar chiqaruvchi tadqiqotchi sifatida qaraladi. Finlandiya maktabgacha ta'lim tajribasida metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri o'yin orqali o'rganish (play-based learning) yondashuvidir. Mazkur yondashuv Finlandiya maktabgacha ta'lim milliy o'quv dasturining (Finnish National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care) muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'yin bolaning shunchaki hordiq chiqarish faoliyati emas, balki bilimlarni mustaqil egallash, tajriba o'tkazish, muammolarni hal qilish va o'z faoliyatini boshqarish jarayoni sifatida talqin etiladi. O'yin jarayonida bolalar turli vaziyatlarni modellashtiradi, qarorlar qabul qiladi, faoliyat natijalarini baholaydi va keyingi harakatlarini rejalashtiradi. Bu jarayonlar esa metakognitiv ko'nikmalarning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Shuningdek, Finlandiya tajribasida fenomenlarga asoslangan ta'lim (phenomenon-based learning) maktabgacha yoshdagi bolalarning faol bilish jarayonlarini qo'llab-

quvvatlovchi samarali pedagogik yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuvning asosiy mohiyati bolalarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki real hayotdagi hodisalarni kuzatish, savollar qo‘yish, taxminlar ilgari surish, tajribalar o‘tkazish va mustaqil xulosalar chiqarishga yo‘naltirishdan iborat (Silander, 2015). Shunday qilib, Finlandiya tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish faqat maxsus mashg‘ulotlar doirasida emas, balki o‘yin faoliyati, tadqiqotchilik faoliyati, rivojlantiruvchi ta’lim muhiti hamda refleksiv yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Mazkur tajribaning asosiy pedagogik imkoniyati shundan iboratki, unda bola ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi va unga o‘z fikrlash jarayonlarini anglash, faoliyatini rejalashtirish, natijalarini baholash hamda o‘z bilish faoliyatini boshqarish imkoniyatlari yaratiladi.

Tahlillar natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolaning tabiiy qiziqishi va faol ishtirokiga asoslangan ta’lim jarayoni metakognitiv bilimlar, monitoring, strategik fikrlash va o‘z-o‘zini baholash komponentlarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratadi. Shu jihatdan, mazkur tajriba maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv kompetensiyani rivojlantirishda bolaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tadqiqotchilikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish hamda refleksiv faoliyatni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Ushbu xususiyatlar bolaning faol subyekt sifatida shakllanishi, uning shaxsiy tajribasi va ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan yondashuvlar maktabgacha ta’lim jarayonining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jihatlar Italiya maktabgacha ta’lim tajribasida, xususan, Reggio Emilia yondashuvida yanada rivojlantirilgan bo‘lib, unda bolaning fikrlashi, ijodiy ifodasi va o‘rganish jarayonini aks ettirishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu yondashuvda bolalarning metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning fikrlash jarayonini anglash, faoliyatini tahlil qilish va o‘z tajribasini ifodalash imkoniyatlarini yaratishga asoslanadi. Mazkur yondashuv Loris Malaguzzi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda bola faol bilim yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi. Reggio Emilia pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri bolaning “yuzlab tillari” (The Hundred Languages of Children) konsepsiyasi bo‘lib, unga ko‘ra bola o‘z fikrlarini nafaqat nutq orqali, balki rasm, konstruktorlik faoliyati, ijodiy ishlar va boshqa ifoda vositalari orqali namoyon etadi. Mazkur yondashuvda pedagogik hujjatlashtirish (pedagogical documentation) metodi alohida ahamiyatga ega. Ushbu metod bolaning faoliyat jarayoni, fikrlari, savollari, taxminlari va erishgan natijalarini muntazam qayd etish hamda tahlil qilishni nazarda tutadi. Pedagog kuzatuv yozuvlari, fotosuratlar, bolalar ishlari va suhbat natijalari asosida bolaning qanday fikrlayotganini aniqlaydi. Hujjatlashtirish jarayoni nafaqat pedagog uchun baholash vositasi, balki bolaning o‘z

faoliyatini qayta ko‘rib chiqishi va refleksiya qilishi uchun imkoniyat yaratadigan metod sifatida namoyon bo‘ladi. Reggio Emilia yondashuvida qo‘llaniladigan refleksiv suhbatlar (reflective conversations)orqali bolalar bajarilgan faoliyat yuzasidan fikr almashadilar, o‘z qarorlarini izohlaydilar va turli yechimlarni taqqoslaydilar. Pedagog tomonidan beriladigan ochiq savollar (“Nima deb o‘ylaysan?”, “Buni qanday amalga oshirding?”, “Yana qanday usulni sinab ko‘rish mumkin?”) bolaning o‘z fikrlash jarayonini anglashiga va nazorat qilishiga yordam beradi. Natijada bolalarda metakognitiv monitoring, o‘z faoliyatini baholash va refleksiya ko‘nikmalari rivojlanadi. Shunday qilib, xorijiy tajribalar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi. Biroq mazkur yondashuvlarni milliy ta’lim amaliyotiga moslashtirish uchun mahalliy tajriba va mavjud pedagogik imkoniyatlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Xitoy maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning bilish faolligi, mustaqil izlanishi va amaliy tajribasini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlari bilan e’tiborga loyiq. Ayniqsa, 2012-yilda Xitoy Ta’lim vazirligi tomonidan qabul qilingan 3–6 yoshli bolalarning o‘rganishi va rivojlanishi bo‘yicha qo‘llanmada bolalarning yosh xususiyatlariga mos ta’limiy faoliyatni tashkil etish masalalari yoritilgan. Mazkur hujjatda bolaning bevosita kuzatishi, mustaqil tajriba o‘tkazishi, o‘yin orqali o‘rganishi va tengdoshlari bilan muloqot qilishi muhim o‘rin tutadi. Bu jihatlar metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ham qulay pedagogik imkoniyat yaratadi.

Xitoy tajribasini o‘rganish jarayonida, ayniqsa, uchta yo‘nalish e’tiborni tortadi: erkin o‘yin faoliyati, tadqiqotga asoslangan ta’lim va o‘z faoliyatini tahlil qilish.

Birinchi yo‘nalish – erkin o‘yin faoliyati. Bunda bolaga o‘yin mazmunini tanlash, o‘yin jarayonini tashkil etish va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni mustaqil hal qilish imkoniyati beriladi. Bunday sharoitda bola o‘z qarorining natijasini bevosita ko‘radi va zarur bo‘lsa, uni o‘zgartiradi.

Ikkinchi yo‘nalish – tadqiqotga asoslangan ta’lim. Masalan, bolalarga «Nima uchun ayrim predmetlar suvda cho‘kadi, boshqalari esa suv yuzida qoladi?» degan savol beriladi. Bolalar dastlab o‘z taxminlarini bildiradilar, keyin predmetlarni suvga solib ko‘radilar va natijalarni taqqoslaydilar. Bu jarayonda ular o‘z fikrlarini tekshirish, xatolarini aniqlash va yangi xulosaga kelishni o‘rganadilar.

Uchinchi yo‘nalish – refleksiv faoliyat. Mashg‘ulot yoki o‘yin yakunida bolalar bajargan ishlarini muhokama qiladilar. Tarbiyachi ulardan «Nima qilishni rejalashtirganding?», «Qaysi joyida qiynalding?», «Muammoni qanday hal qilding?» deb so‘raydi. Bunday savollar bolani o‘z faoliyatiga qayta nazar tashlashga o‘rgatadi.

Xitoy tajribasining alohida e'tiborga loyiq jihatlaridan biri Anji Play pedagogik yondashuvidir. Ushbu yondashuv Xitoyning Chjetszyan provinsiyasidagi Anji hududida rivojlangan bo'lib, bolalarning erkin o'yini, mustaqil qaror qabul qilishi va o'z tajribasini tahlil qilishiga asoslanadi. Anji Play jarayonida bolalar turli konstruktiv materiallardan foydalanib, o'zlari istagan inshootlarni quradilar, o'yin vaziyatlarini yaratadilar va yuzaga kelgan muammolarni mustaqil hal etishga harakat qiladilar. Tarbiyachi esa ularning faoliyatini kuzatadi, xavfsizligini ta'minlaydi va kerakli paytda yo'naltiruvchi savollar beradi. Ushbu tajribaning muhim jihati o'yindan keyingi muhokama jarayonidir. Bolalar o'zlari bajargan ishlarini rasmlar orqali ifodalaydilar, qanday qarorga kelganliklarini tushuntiradilar va duch kelgan qiyinchiliklarini muhokama qiladilar. Masalan, bola yog'och kublardan baland minora qurishni maqsad qiladi. Dastlabki urinishida minora qulab tushadi. Shundan so'ng u kublarni boshqacha joylashtirishga harakat qiladi. O'yin yakunida tarbiyachi undan nima sababdan birinchi urinish muvaffaqiyatsiz bo'lganini va keyingi safar qanday yo'l tutishini so'raydi. Bola o'z harakatlarini tahlil qilish orqali tajribasidan xulosa chiqaradi. Bizning nazarimizda, Anji Play tajribasining asosiy pedagogik qiymati bolaga xato qilish imkoniyatini berish va xatoni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilishidadir. Bu yondashuv bolada o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish holati O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ham bolalarning mustaqil fikrlashi, bilish faolligi va tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti hamda «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida bolaning har tomonlama rivojlanishi, mustaqil faoliyati va kompetensiyalarini shakllantirish masalalari o'z ifodasini topgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar faoliyati, tajriba va kuzatish mashg'ulotlari, didaktik o'yinlar hamda loyihaviy faoliyat bolalarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat hisoblanadi. Masalan, qurish-yasash va konstruksiyalash markazida bola biror buyumni yasashdan oldin uning shakli va tuzilishini o'ylaydi. Ilm-fan va tabiat markazida turli tajribalar orqali o'z taxminlarini tekshiradi. Til va nutq markazida esa bajargan ishi haqida hikoya qilib, o'z fikrlarini ifodalashga o'rganadi. Shunga qaramay, amaliyotda ayrim mashg'ulotlarda asosiy e'tibor topshiriqning tayyor natijasiga qaratilib, bolaning uni qanday bajargani, qanday fikrlagani va qaysi usuldan foydalangani yetarlicha muhokama qilinmaydi. Vaholanki, metakognitiv rivojlanish uchun aynan shu jarayon muhimdir. Bizning fikrimizcha,

mahalliy maktabgacha ta'lim amaliyotida mavjud rivojlantiruvchi markazlar imkoniyatidan yanada samarali foydalanish, mashg'ulotlarga rejalashtirish, o'zini nazorat qilish va refleksiyaga qaratilgan topshiriqlarni izchil kiritish zarur. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida bolaning har tomonlama rivojlanishi, uning mustaqil fikrlashi, bilishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash hamda faol ta'lim subyekti sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar jarayonida maktabgacha ta'lim mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, ta'lim jarayonini bola shaxsiga yo'naltirish va rivojlantiruvchi muhitni yaratishga qaratilgan. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri bolalarning intellektual, ijtimoiy-hissiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim mazmunini shakllantirishdan iborat.

Mazkur jarayonda maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, o'z faoliyatini baholash va o'zini boshqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatlar xalqaro ta'lim dasturlarida metakognitiv ko'nikmalar sifatida talqin qilinadigan jarayonlar bilan mazmunan uyg'unlashadi. Milliy maktabgacha ta'lim amaliyotida mazkur yo'nalishdagi asosiy hujjatlardan biri "Ilk qadam" milliy davlat o'quv dasturi hisoblanadi. Ushbu dastur maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, bolaning shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etishi, mustaqil faoliyat olib borishi va atrof-muhitni faol o'rganishini ta'minlashga qaratilgan. Dasturda bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirish, tashabbuskorligi, ijodiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi va o'z faoliyatini tashkil eta olishiga alohida e'tibor beriladi. Mazkur kompetensiyalar bevosita metakognitiv ko'nikmalarning tarkibiy jihatlari bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni mazkur yo'nalishdagi muhim normativ-huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu hujjatda maktabgacha ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash vazifalari belgilangan. Shuningdek, farmonda maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish va ularga ta'lim berishni ijobiy pedagogik munosabatlar asosida tashkil etish maqsadida o'yinga asoslangan ta'limni joriy etish yo'nalishi nazarda tutilgan. O'yinga asoslangan ta'lim (play-based learning) zamonaviy maktabgacha ta'limning muhim metodologik yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda o'yin bolaning

shunchaki bo‘sh vaqt faoliyati emas, balki rivojlantiruvchi ta’lim vositasi sifatida qaraladi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, bola o‘yin jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etadi, mustaqil tanlov amalga oshiradi, turli vaziyatlarni tahlil qiladi, muammolarni hal etish yo‘llarini izlaydi va o‘z faoliyati natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, o‘yinga asoslangan ta’lim bolaning kognitiv rivojlanishi bilan bir qatorda metakognitiv ko‘nikmalarining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Mahalliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan islohotlar an’anaviy bilim berishga asoslangan modeldan bolaning faol tajribasi, mustaqil harakati va ijodiy faolligini qo‘llab-quvvatlovchi rivojlantiruvchi modelga o‘tishni nazarda tutmoqda. Bunda rolli o‘yinlar, didaktik o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar, konstruktiv faoliyat va muammoli vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar orqali bolalarning mustaqil fikrlashi, muloqot qobiliyati hamda o‘z faoliyatini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Xorijiy va mahalliy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki yo‘nalishda ham maktabgacha ta’limda bolaning faol ishtirokini ta’minlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va amaliy faoliyat orqali bilimlarni egallashga alohida e’tibor qaratiladi. Xorijiy tajribalarda o‘yinga asoslangan ta’lim, bolaning tanlovi va mustaqil faoliyati asosiy tamoyil sifatida namoyon bo‘lsa, O‘zbekiston amaliyotida ushbu yondashuvlar kompetensiyaviy ta’lim, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hamda rivojlantiruvchi ta’lim muhiti orqali bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan nazariy-qiyosiy tahlil natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish ularning mustaqil fikrlashi, bilish faolligi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Buyuk Britaniya, Finlandiya, Italiya va Xitoy tajribalari tahlili metakognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda dialogik muloqot, o‘yin orqali o‘rganish, tadqiqotchilik faoliyati, pedagogik hujjatlashtirish va refleksiv suhbatlarning samarali pedagogik imkoniyatlarini namoyon etdi.

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida mavjud «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi, rivojlantiruvchi markazlar, o‘yin faoliyati va kompetensiyaviy yondashuv metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zarur metodik asoslarni taqdim etadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning rejalashtirish, monitoring, o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni ta’limiy faoliyatga izchil kiritish.

2. Buyuk Britaniya tajribasidagi dialogik ta'lim elementlaridan foydalanib, bolalarni o'z fikrlarini izohlash, savol berish va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatish.

3. Finlandiya va Xitoy tajribalaridan kelib chiqib, erkin o'yin, tajriba o'tkazish va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar ulushini kengaytirish.

4. Reggio Emilia yondashuvidagi pedagogik hujjatlashtirish imkoniyatlaridan foydalanib, bolalarning faoliyat jarayoni, dastlabki taxminlari, qarorlari va erishgan natijalarini qayd etish.

5. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturidagi rivojlantiruvchi markazlar faoliyatini metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar bilan boyitish.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari uchun metakognitiv rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi metodlar, refleksiv savollar va kuzatuv texnologiyalariga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

7. Bolalarning faoliyatini baholashda faqat yakuniy natijaga emas, balki topshiriqni bajarish jarayonida namoyon bo'lgan mustaqillik, izlanish, xatolarni aniqlash va muqobil yechim topish qobiliyatlariga ham e'tibor qaratish.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish ta'lim jarayonini bolaning mustaqil bilish faoliyati, shaxsiy tajribasi va refleksiv fikrlashiga yo'naltirishni talab etadi. Xorijiy tajribalarning samarali jihatlarini milliy ta'lim mazmuni bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarda nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki o'z bilimlarini anglash, faoliyatini boshqarish va mustaqil o'rganishga tayyorlikni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-19-sonli 2026-yil 5-fevral. https://lex.uz/doc-passport/8037353

2. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limning "ILK QADAM" Milliy o'quv dasturi /Uchinchi nashri/ Toshkent – 2026

3. Alexander, R. J. (2018).Developing Dialogue: The Evolution of Dialogic Teaching. In: Mercer, N., Wegerif, R., Major, L. (Eds.). The Routledge International Handbook of Research on Dialogic Education. London: Routledge.

4. Finnish National Agency for Education. (2022). National Core Curriculum for Early Childhood Education and Care 2022. Helsinki: Finnish National Agency for Education.

5. Silander, P. (2015). Phenomenon Based Learning. In: How to Create the School of the Future: Revolutionary Thinking and Design from Finland. Helsinki: Multidisciplinary Learning Environments.

6. Rinaldi C. In Dialogue with Reggio Emilia: Listening, Researching and Learning. – London: Routledge, 2006. –240 p

7. Xojimirzayeva, Shaxnoza. "TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA XORIJIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI." YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 2.13 (2026): 133-137.

8. Xojimirzayeva, Shaxnoza. "XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-NAZARIY MANBALARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: XITOY MAKTABGACHA TA'LIMI MISOLIDA." Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar 3.7 (2026): 81-83.